



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ maktabgacha va
_____ ta'limi bo'limi tasarrufidagi
_____ maktabgacha ta'lim tashkiloti
_____ o'qituvchi tarbiyachisi

_____ ning
takomillashgan "Ilk qadam"
davlat o'qituvchi uchunchi nashri

"Qish faslida maktabgacha ta'limi mashg'ulotlarini o'tkazish"

mavzusida tashkil etilgan

**FAOLIYAT
ISHLANMASI**

(Dekabr oyining 2-haftasi)

Guruh: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Qish va salomatlik

Hafta mavzusi: Qish faslida mavsumiy o'zgarishlar

Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

Ta'limiy: bolalarga fasl haqida tushuncha berish, faslning o'ziga xosliklarini tushuntirish;

Rivojlantiruvchi: suhbat vositasida bolalar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish;

Tarbiyaviy: o'zaro hamdardlik tuyg'usini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, qishni tasvirlovchi suratlar.

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening quvnoq bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatni Hamidulla Yoqubovning "Qor" nomli she'ri bilan boshlayman.

Qor

Hamidulla Yoqubov

Qor, qor, qorlar,
Atrof porlar.
Yilt-yilt nurdek,
Oppoq undek.
Shakar, undek,
Shakar desam,
Agar yesam,
Og'rir tishim
Qor, qor, qorlar,
Atrof porlar.
Yilt-yilt nurdek,
Oppoq undek.



Tarbiyachi: - Bolajonlar, she'r sizlarga qanday tushadi?

Bolalar: - Ha, yoqdi.

Tarbiyachi: - Bolalar, hozir o'lkamizda qish faslida. Hozir biz qish fasligi haqida gap aytamiz. Qani, aytinglar-chi, bu faslning qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

1-bola:- Bu faslda kun judayam sovib ketadi.

2-bola:- Qishda qorlar yog'adi, biz qorbo'ron o'ynaymiz.

3-bola:- Qishda yangi yil bayrami bo'ladi.

4-bola:- Qishda qalin kiyimlar kiyamiz.

Tarbiyachi: - Sizlar yaxshi gap tuzdinglar. Endi diqqatingizni monitorga qaratib, suratga qarab gap tuzamiz. Bu safar birinchi marta gap aytmaganlar ishtirok etish so'raladi.

(Monitorda qish tasviri ko'rsatiladi.)

5-bola:- Suratda qish fasli tasvirlangan. Qorlar oppoq, bolalar qalin kiyimlarda qorbo 'ron o 'ynashyapti.



6-bola:- Bitta qiz qo'li sovuq qotgani uchun qo'lini qizil top kiyiyapti.

7-bola:- Yana bitta bola chanasini olib kiyayapti. Ular bilan chana uchadi.

8-bola:- Suratdagi uyning tomi qor bilan qoplangan. Mo'ljalar tun chiqyapti.

Tarbiyachi: - Bolalar, qishda ham o'z kiyimini yechib olinib balarini yo'qotmaydigan daraxtning nomi nima edi?

Bolalar: - Archa.

Tarbiyachi: - Bolalar, suratga yana bir marta qarang. Suratdagi bolalarning kayfiyati qanday?

9-bola:- Bolalarning kayfiyati yaxshi, ular juda xursand ekan.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, qorning rangi qanaqa ekan?

10-bola:- Qorning rangi oppoq ekan.

Tarbiyachi: - Juda to'g'ri aytdingiz. Kelinglar, endi bilan ajoyib o'ynaymiz. Men savol beraman, sizlar tezda javob berishinglar kerak. Kim savolning javobiga tayyor bo'lsa, qo'lini ko'tarib javob beradi.

ishda nima kiyamiz? (Palto)

Sovuqdagi bosh kiyimimiz nima? (*Qalpoq*)

Qishda qaysi bayram bo‘ladi? (*Yangi yil*)

Qorboboning hamrohi kim? (*Qorqiz*)

Qishin-yozin bir xil kiyimda, u nima? (*Archa*)

Qishda qanday o‘yin o‘ynaymiz? (*Qorbo‘ron*)

Qishda qo‘llarimiz sovuq qotmasligi uchun nima kiyishimiz kerak? (*Qo‘lqop*)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o‘tkazamiz.

Ikki qo‘limizni ochamiz, qorni dumaloqlayotganimizni tasavvur qilamiz. Ikkala qo‘limizda yaxshilab dumaloqladik. Qorlar bir-biriga yopishdi, dum-dumaloq shaklga keldi. Endi uni uzoqqa otamiz.

(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatgan harakatlarni bajaradilar.)

Tarbiyachi: - Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar:

Yashil qor qanday bo‘ladi?

Yashil qor qanday bo‘ladimi yoki sovuq?

Qishda qaysi bayramlar o‘tkaziladi?



Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi.

Geometrik shakllar

Maqsad: bolalar sanoq cho‘plardan kvadrat, uchburchak va to‘g‘ri burchak shakllarni yasaydilar, tayyorlangan shakllardan turli xil predmetlarni hosil qiladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: har bir bola uchun sanoq cho‘p.

Faoliyatning borishi:

1. Navbat bilan uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchakni yasash.
2. Sanoq cho'p yordamida uycha, ikki qavatli uycha, archa va mashina yasash.
3. «Ta'rifdan top» ta'limiy o'yin.
4. Mustahkamlash uchun savol: Uchburchakni yasash uchun nechta Sanoq cho'p kerak? Uycha yasash uchun nechta sanoq cho'p kerak? Sanoq cho'p orqali aylana yasash mumkinmi? 1 ta to'rtburchak va 1 ta uchburchakni yasash uchun nechta sanoq cho'p kerak?

To'rtburchakni nechta sanoq cho'pdan yasash mumkin?

Qo'shimcha: ta'limiy, rivojlantiruvchi, mantiqiy o'yinlarni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: berilgan vazifani to'g'ri bajarish.

Syujetli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Hayvonot bog'i»

Musallab turli xil hayvonlar qiyofasini aks etira oladilar, ularning yashash joylarini ko'rsatadilar, hayvonot bog'i ishchilarining mehnatlaridan xabardor bo'ladi.

Kerakli vositalar:

mavzu asosida tayyorlangan rollar
uchun oq xitoy chiroqlari
yettiruvchi niqoblar

Faoliyatning borishi:

1. Hayvonot bog'idagi hayvonlarni tasvirlangan rasm asosida sahnalashtirish.
2. Uyinni rejalashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Xayvonlar niqoblarini kiyish.
5. O'yin faoliyati.

Qo'shimcha: ta'limiy o'yin.

E'tiborga molik jihati: hayvonlarni sevish, ularga g'amxo'rlik qilish.

Til va nutq markazi

«Kim miyovladi?» mavzusida
kichik hikoya tuzish

Ilaqad: bolalar V.G.Suteevaning

«Miyov deb kim aytdi?» ertagidagi

hikoyasini tinglash.

Sahnalashtirishda faol ishtirok etadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: AKT.

Faoliyatning borishi:

«Miyov deb kim aytdi?» hikoyasini tinglash.



2. Hikoya yuzasidan suhbat.

3. «Ovozidan top» ta'limiy o'yin.

4. «O'z uychangni top» ta'limiy o'yin.

Qo'shimcha: ertak qahramonlarini yasash.

E'tiborga molik jihati: kelishik Qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz qilish, qisqa hikoyalar tuzish.

Fan va tabiat markazi

Qor o'yinlari

Maqsad: bolalar qor xususiyatlari: yumshoq, oq, yopishqoqligi bilan tanishadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qor yoki sarg'ish, AKT, idishlar.

Faoliyatning borishi:

1. J. sh. shish.

2. AKT luma ko'rish.

3. Qorni ushla qor xususiyatlarini amaliy tajribada kuzatish.

Qo'shimcha: mavzu davra suhbat.

E'tiborga molik jihati: qor xususiyatlarini amaliy tajribada kuzatish.

San'at markazi

Rasm: «Oynadagi qish manzarasi»

Maqsad: bolalar derazada tasvirlangan qish namunasini rasmda oddiy chiziqlar bilan chizadilar (to'g'ri, to'liqlik chiziq, qor panjari).

Kerakli jihoz va materiallar: namuna, mavzu asosidagi rasmlar, qog'oz, yelin qaychi, qalam, chizg'ich, mo'yqalam, guash.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va rasmlarni tomosha qilish.

2. Kerakli jihozlarni tanlash.


3. Bolalarning mustaqil ijodi.

4. Bolalar ishlarining namoyishi.

Qo'shimcha: qish haqida she'r va topishmoqlar (bolalar faoliyatidan).

E'tiborga molik jihati: bolalarni ijodiy dunyoqarashini, tasviriy va estetik didini shakllantirish.

QISH



San'at markazi

Applikatsiya: «Qor uchqunlayapti»

Maqsad: bolalar bir nyecha bo'lakka buklangan qog'ozdan kor parchalari yasaydilar, kesib olish jarayonida to'g'ri, simmetrik o'lchamlarni aniqlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: namuna, A1 hajmli qoraytirilgan qog'oz, to'q rangli bo'yoqlar, qaychi, yelim, mo'yqalam, salfetka, kleyonka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani ko'rish va tahlil qilish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Jamoa ishi.

Qo'shimcha: jamoa ishini guruh yo'lakchasiga ilish va ota-onalar bilan muhokama qilish.

E'tibor: jamoa bo'lib ishlashda bir-birini fikrini hurmat qilish hissini tarbiya qilish.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

91-328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

O'rta guruhlariga dekabr oyi 2-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**